

**TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA MADANIY
MEROsimizdan UNUMLI FOYDALANGAN HOLDA
INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH VA UNI TALABALARGA
AMALIY TADBIQ ETISH.**



Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston

Tog'aev Keldiyor Xamidovich

keldiyortogayev@gmail.com



(+998936605302)

Xudoyberdiyeva Sug'diyona Ixtiyor qizi

sugdiyonaxudoyberdiyeva9@gmail.com

(+99893 633 17 41)

Annotatsiya: Ushbu maqola Tasviriy san'at fanini o'qitishda madaniy merosimizdan unumli foydalangan holda innovatsion metodlarni qo'llash va uni talabalarga amaliy tadbiq etish. Tasviriy san'at o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash va ularni komil insonlar qilib shakllantirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at insonning ichki ruhiy kechinmalari, o'y-hayollari, kayfiyati va tabiat go'zalliklarini turli xil ranglar va shakllar obrazi orqali ifodalaydi.

Abstract: This article is about the use of innovative methods in the teaching of fine arts, making good use of our cultural heritage, and its practical application to students. serves to educate students in all aspects and make them perfect people. Fine art expresses the inner spiritual experiences, thoughts, mood and natural beauty of a person through the image of various colors and shapes.

Аннотация: Эта статья посвящена использованию инновационных методов в преподавании изобразительного искусства, эффективному использованию нашего культурного наследия и его практическому применению для студентов, служит для обучения студентов во всех аспектах и превращения их в совершенных людей. Изобразительное

искусство выражает внутренние душевые переживания, мысли, настроение и естественную красоту человека через изображение различных цветов и форм.

Kalit so'zlar: Kreativlik (lot., eng. "kreate" – yaratish, "kreative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi va iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Key words: Creativity (lat., eng. "kreate" - to create, "kreative" - creator, creator) - the creative ability of an individual that describes the readiness to produce new ideas and is part of talent as an independent factor. A person's creativity is manifested in his thinking, communication, feelings, and certain types of activities. Creativity describes a person as a whole or his specific characteristics and is also reflected as an important factor of talent.

Ключевые слова: Творчество (лат., англ. «kreate» — создавать, «kreative» — творец, творец) — творческая способность личности, характеризующая готовность к выработке новых идей и являющаяся частью таланта как самостоятельного фактора. Творческие способности человека проявляются в его мышлении, общении, чувствах и отдельных видах деятельности. Творчество характеризует человека в целом или его конкретные характеристики, а также отражается как важный фактор таланта.

KIRISH

O'qituvchi o'z darsining ta'sirchan kuchidan foydalanib o'quvchilarning ma'naviy, ahloqiy va badiiy madaniyatini oshirish maqsadida turli metod, shakl va vositalar orqali o'z maqsadiga erisha oladi. Bugungi kunda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol metod va innovatsion darslarni ta'lim jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Bunga

zaruriyatning asl sabablaridan biri, shu paytgacha an'anaviy ta'lilda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini, o'zлari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o'qituvchi mohirlikdan-ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta'lil sohasi rivojiga hissasini qo'shmog'i talab etiladi.

Tasviriy san'at jahon madaniyatida kechayotgan zamonaviy integratsion va global jarayonlarni yorqin aks ettiruvchi asosiy segmentlardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosidagi badiiy jarayonlarda yetakchilik qilayotgan tendensiyalar san'at asarining falsafiy, estetik va texnik ifodasini tubdan o'zgartirgan post modernizmy o'nalishi bilan uzviy bog'liq. Mayjud madaniy meros va an'analarga asoslangan holda, installyatsiya, performans videoart, foto artkabik o'rinishlarda aks etgan zamonaviy san'at inson faoliyatini falsafiy anglashda yangi imkoniyatlar bermoqda. Mazkur innovatsion tendensiyalar rangtasvir taraqqiyotini ham yangi bosqichga olib chiqib, san'at olamida yangi spetsifikaga ega bo'ldi. Rangtasvirning ijtimoiy-madaniy ahamiyati, uning rivojida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni o'rganishga qaratilgan keng doiradagi tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xozirgi davrimizda ilm fan san'atning rivojlanishiga mamlakatimizda yanada yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli qarori, Yoshlarning ma'nnaviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi hamda 2020 yil 1-apreldagi

“Tasviriylar va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-sonli qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Bu imkoniyatlardan kelib chiqib Vatanimizning bugungi kundagi iqtidorli yoshlari yanada kuch va g‘ayrat bilan san’at va ilm sirlarini puxta egallahsha intilmoqdalar. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlari orasida ham tasviriylar san’atga qiziqishi yuqori bo‘lgan, tasviriylar san’atni jon dilidan seuvuchi, ulkan maqsadlar bilan harakat qiladigan yoshlari talaygina. Shuni hisobga olib rangtasvir san’ati sir asrorlarini ham yoshlarga jahon talablariga mos ravishda o‘rgatishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Mazkur jarayonda zamonaviy rangtasvirning badiiy potensialini ochishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar alohida o‘ringa ega. Xorijiy mamlakatlarda rangtasvirning o‘ziga xos shakllanish xususiyatlari, rivojlanish bosqichlariga oid asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalarni aniqlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarda san’atning barcha qatlamlarida o‘z aksini topgan madaniy integratsiya milliy rangtasvir sohasining zamonaviy badiiy jarayonlar bilan uyg‘unlikda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratdi. “Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tasviriylar san’atiga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotgani, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgani jodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san’at maydonida munosib o‘rin egallahsha intilish tendensiyalari ko‘zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim

Shu jihatdan, O‘zbekiston rangtasvirida rivojlangan yangi tendensiylar, ularning zamonaviy jarayonlar bilan aloqasi va milliy badiiy meros bilan uyg‘unligini talabalarga o‘rgatish bugungi kun uchun juda dolzarb masaladir.

Ta’lim maqsadlarini, baholash mezonlarini xamda ta’lim sharoitlarini takroriy xosil kilishdagi imkoniyatlaridan kelib chikib, ta’lim- tarbiya jarayonini tarbiyaviy omillariga xam — texnologik jarayonini keng tadbik etish mumkin.

1”.¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПК-3219-сон “Ўзбекистон Бадиий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи. -2017 й., 17 август.

Bu jihatdan pedagogik texnologiya ta’lim va tarbiya o’rtasidagi farqni qisqartiradi. Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadlarini aniqlashtirish va qismash- tirish, ta’lim natijalarini standartlashtirish, ta’lim jarayonidagi samarali teskari aloqa, avtomatlashtirish imkoniyatlari kabi muhim ta’lim muammolarini xal qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o‘qituvchi mohirlikdan-ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta’lim sohasi rivojiga hissasini qo‘shmog‘i talab etiladi. Noan’anaviy dars o‘tish usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilardan o‘z kuchiga ishonch hosil qilish muhitini yaratish, sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro mehr-oqibat, hamfikrlikning shakllanishiga omil yaratiladi. Ushbu muammoni ishlab chiqishda —pedagogik texnolgiyadagi ta’lim tizimlarini ko’rishdagi tajribasini xisobga olish va tanqidiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.—Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarining tanqidiy tahlil qilinishi, ta’limga reduktsion yondashishdan voz kechish bilan belgilanadi. Bir galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021) 237vaqtning o’zida

—Pedagogik texnologiyalar nazariy asoslarini o’zgartirish bilan birgalikda uning muammo maydonini ham o’zgartirish lozim. Ta’lim jarayonining texnologik qurilishi qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ular sirasiga, birinchi navbatda, didaktik maqsadlarini ishlab chiqish, ularni muvofik ravishda tarkib toptirish, mos ravishdagi ta’lim jarayonini loyixalashtirishda uning shakl va mazmuni muvofiqligini taminlash, o‘quvchilar tomonidan tajribaning tulaqonli o‘zlashtirilishi, barcha ta’lim oluvchilar saviyasini tenglashtirish va oshirish kabilarni kiritish mumkin.

XULOSA

Bo`lg`usi mutaxassislarini sifat jixatidan zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbiy kunikma va malakalarni shakllantirish, ularni kelgusi faoliyatlarida unumli qo`llashga o`rgatish orqali erishish mumkin. Shunday ekan, o`quv-tarbiya jarayonini ta`lim nazariyasi faoliyati nuqtai nazaridan ko`rib chiqib, barcha ta`lim-tarbiya ishlarini pedagogik texnologiyalar yo`nalishiga o`tkazish, mакtab amaliyotidagi ixtiyoriylik bilan uning har bir elementini jiddiy asoslash lozim bo`ladi. XXI-asr axborot texnologiyalari asri. Ta`lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda axborot texnologiyalarini ham joriy etish maqsadga muvofiq bo`ladi. Kreativlik (lot., ing. “kreate” – yaratish, “kreative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi va iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.²

Foydalaniman adabiyotlar

1. Келдиёр Хамидович Тоғаев ТАСВИРИЙ САНЪАТДАГИ МАНЗАРА КОМПОЗИЦИЯСИ ЖАНРИГА ОИД АСАРЛАРИ ИНСОНДА ТАБИАТГА ВА ГУЗАЛЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ // Oriental Art and Culture. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-sanatdagisi-manzara-kompozitsiyasi-zhanriga-oid-asarlari-insonda-tabiatga-va-guzallik-fazilatlarini-shakllantirish> (дана обраще)

2. Keldiyor Xamidovich Tog'ayev TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI TABIAT QO'YNIDA TASHKIL TISHNING AFZALLIKLARI JIHATDAN PUXTA BILIM OLISHIGA ERISHISH VA

² Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To'raev. – T.: TDPU, 2015. – 72-73-b.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

O'QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARIGA E'TIBOR QARATISH // Oriental Art and Culture. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-mashg-ulotlarini-tabiat-qoynida-tashkil-tishning-afzalliklari-jihatdan-puxta-bilim-olishiga-erishish-va-o> (дата обращения: 22.09.2023).

3. Dilmurod Xolmamatovich Axmedov XORIJIY TAJRIBALARDAN TASVIRIY SAN'AT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK TARIXI VA ASOSLARI // Oriental Art and Culture. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tajribalardan-tasviriy-san-at-tizimini-takomillashtirishning-ijtimoiy-pedagogik-tarixi-va-asoslari> (дата обращения: 22.09.2023).

4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.

5. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.

6. Tog‘ayev, Keldiyor Xamidovich. "TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI." *Innovative Development in Educational Activities* 1.6 (2022): 44-50.

7. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG ‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 11-14.

8. Tog‘ayev, K. X. (2022). TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 44-50.

9. Xamidova, G. X. (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI VA CHIZMA www.tadqiqotlar.uz 2-to'plam dekabr 2023

GEOMETRIYA FANLARIDAGI ONA TILI QOIDALARIGA XILOF,
NOTO'G'RI VA NOANIQ BAYON QILINAYOTGAN TERMINLAR VA
ULARNING OLDINI OLISH. *Journal of Integrated Education and Research*,
1(6), 203-207.

10. Xamidova G. X. CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: Gulmira Xamidovna Xamidova,
Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakul'teti, Tasviriy sanat va
muahadislik grafukasi kafedrasи oqituvchi //Научно-практическая конференция.
– 2022.